

TURK TILIDA KO‘RSATISH OLMOSHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Ozan Selma

Turkshunoslik fakulteti Turkiy tillar kafedrası 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: o'qit. Z. Salimova

ANNOTATSIYA:

Ushbu ilmiy maqolada ko'rsatish olmoshlari yoritilib, ko'plab tadqiqotchilarning amalga oshirgan tadqiqotlari tadbiiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Zamir, Olmosh, ko'rsatish olmoshi, Muharrem Ergin, Tahsin Banguoğlu, Von Gabain, Zeynep Korkmaz, F. Kadri Timurtaş, Özdemir Asaf, İşaret Sıfatı.*


Turk tili, uzun tarixiy taraqqiyot va keng geografik hududga tarqalgan lahjalari bilan birgalikta til ustida tadqiqot ishlarini amalga oshirayotganlar uchun boy material hisoblanadi. Olmoshlar, kishilik, so'roq, ko'rsatish va bo'lishsizlik tushunchalarini olib otlar o'rnida qo'llanila oladigan so'zlar sifatida tanilgan. Turk tili grammatika manbalarida olmoshlar ya'ni zamirler to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Misol tariqasida olmoshlarga Muharrem Ergin (1997,217) "Ob'ektlarni ifodalovchi yoki ular o'rnida qo'llanila oluvchi so'zlar" Tahsin Banguoğlu (2004,360) "Shaxs yoki ob'yekt tushunchasini bildirib, ot o'rnini egallaydigan so'zlar. Olmoshlar har qanday ko'rinishi bilan otlarga o'xshaydi". Nurettin Koç (1986,174) "Olmoshlar jumlada takrorlanishning oldinini olish maqsadida otlarning hamda ot birikmalarining o'rnini bosa oladigan so'zlar" deya ta'rif bergan. So'z turlari va olmoshlarning so'z turlari orasidagi o'rni grammatika manbalarida bir qancha bir biriga bog'liq, yaqin yondashuvlar bilan ishlangan. Muharrem Ergin (1997,217) so'z turlarini ot, fe'l va ko'makchilar sifatida uch guruhga bo'lib tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Olmoshlarni ham ot guruhiga kiritgan. Olmoshlar ko'plik qo'shimchasini oladi va turlanadi. Misol uchun ko'plik qo'shimchasini oladi dedik ammo ben olmoshiga lar ko'plik qo'shimchasini qo'shib benler deya olmaymiz, biz ko'rinishida bo'ladi. Bene emas bana, benin emasu benim ko'rinishida bo'lgani kabi. Turk tilida olmoshlar ikkita katta guruhga bo'linadi. Bular "Sözcük halindeki zamirler" ya'ni so'z ko'rinishidagi olmoshlar¹ hamda "Ek halindeki zamirler" ya'ni qo'shimcha ko'rinishidagi olmoshlar. Albatta bularning bir qancha turi mavjud. So'z ko'rinishiga ega bo'lgan olmoshlar.

1. Tahsin Banguoğlu. Türkçenin grameri. -Baha matbaası, İstanbul, 1974.-360
2. Muharrem Ergin. Türk Dil Bilgisi. -Bayrak yayımları, İstanbul, 1997.-217
3. Nurettin Koç. Yeni Dilbisi. -İnkılâp Yayınevi, İstanbul, 1986.-174

1. Şahıs (kişi) zamirleri (kishilik olmoshlari)
2. İşaret zamirleri (ko'rsatish olmoshlari)
3. Belgisiz zamirler (belgilash olmoshlari)
4. Soru zamirleri (so'roq olmoshlari)
5. Dönüşlülük zamirleri (o'zlik olmoshlari)

Qo'shimcha ko'rinishidagi olmoshlar

1. İyelik zamirleri (egalik olmoshlari)
2. İlgi zamiri (ki qo'shimchasi)



Ko'rsatish olmoshlari Turk tilida işaret zamiri yoki gösterme zamiri deb ataladi. Ko'rsatish olmoshlari shaxs,predmet yoki belgini vaqt va o'ringa nisbatan ko'rsatish,ajratish uchun ishlatiladi. Turk tilida ko'rsatish olmoshlari bu ,şu,o ko'plik shakli esa bunlar,şunlar ,onlar hisoblanadi. Grammatik manbalarda ko'rsatish olmoshlari tarixiy rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan quyidagicha baholanadi: A. Von Gabain (2003, 67) ko'rsatish olmoshlarini "bo" va "ol" deb qabul qilib, "sho" shaklini esa faqat Yenisey yozuvlarida uchraganini bildiradi. Şinasi Tekin (1992, 88-89), shuningdek, "şu" olmoshini faqat Yenisey yozuvlarida, "ol" esa "aniñ, anta, ança va boshqalar" sifatida ishlatilganligini bildiradi. Uning so'zlariga ko'ra, "bu" olmoshini "munu, munda, muncha va hokazo" shakllarda ko'rish mumkin. F. Kadri Timurtash (1994, 84-85), Eski Anadolu Turkchasida ko'rsatish olmoshlari "bu, şu, ol, o va şol" so'zlari ekanligini aytgan. U o'z ishida bu olmoshlarning ishlatilish xususiyatlarini yoritib bermagan, faqat shakl o'zgartirishini o'rgangan. Müharrrem Ergin (1997,273-275) ko'rsatish olmoshlari biror joydagi biron bir narsani ko'rsatadigan so'zlar ekanligini ta'kidlab,ularning ko'plik shakli hisoblangan "bunlar,şunlar,onlar" so'zlari eng yaqin,yaqin va uzoqda joylashgan narsalarni ishora qilganligini aytib o'tgan. Ergin ko'rsatish olmoshlarining ko'plik shaklini yasashda ko'plik qo'shimchasidan foydalanilgani hamda bir "n" tovushining orttirilganini ta'kidlagan. Shuningdek boshqa ko'rsatish olmoshlariga nisbatan "şu" ko'rsatish olmoshining yangi ekanligini aytgan. Ya'na misol tariqasida shuni keltirib o'tishimiz

mumkin,Zeynep Korkmaz ko'rsatish olmoshlari masofaga bog'liq ekanligini, bu va bunlar yaqindagi ,şu va şunlar biroz uzoqdagi ,o va onlar esa juda uzoqdagi narsa-buyumni ko'rsatishda ishlatilinishini bayon etgan. Zeynep Korkmaz o'z tadqiqot ishlarida ko'rsatish olmoshlariga kelishiklarning ham birika olishini jadval ko'rinishida yoritib bergan. Ya'ni ko'rsatish olmoshlari gapda isim ya'ni ot o'rnida qo'llanilish o'rniga qarab kelishiklarni ham o'ziga qabul qiladi.Ammo egalik qo'shimchalarini aslo qabul qilmaydi.

Bu, şu, o,

- Bunlar, şunlar, onlar,
- Bura, şura, ora,
- Burası, şurası, orası,
- Burada, şurada, orada,
- Buradan, şuradan, oradan,
- Burayı, şurayı, orayı,
- Buralar, şuralar, oralar,
- Öteki, beriki, karşıki,

Turk tilida kaynaştırma harflar mavjud. Bular y,n,s,ş undoshlari hisoblanadi. Onu,bunu,şunu so'zlarida n harfi orttirilgan. Sababi unli bilan tugagan so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilayotgan bo'lsa albatta kaynaştırma undoshlardan biri qo'shiladi.Eski Turkchada esa ko'rsatish olmoshlari hozirgi² ko'rinishidan farqli o'laroq bu,munun muna, munar, buni, muni, bunda, munta, muntada, muntuda, şu, şunda, anın shaklida bo'lgan.**Onu** kirmiş olmalı yaşamında birisi... Dinlendikçe, susması, düşündükçe susması... Tek başına iki kişi olmuş kendisiyle gölgesi...**Özdemir Asaf**

Bu yerda onu so'zi ko'rsatish olmoshi hisoblanmaydi. O va onlar so'zlari ham ko'rsatish hamda kishilik olmoshi sifatida qo'llaniladi. Ko'rsatish hamda kishilik olmoshidagi o va onlar so'zini bir biridan farqlashning juda oson yo'li mavjud. Agar o yoki onlar so'zi inson ismlari o'rnida ishlatilsa kishilik olmoshi, boshqa holatlarda esa ko'rsatish olmoshi hisoblanadi. Misol uchun: **Onu senden daha çok seviyormuş (kişi zamiri)**. Kishilik olmoshi hisoblanadi. Chunki bu yerda onu deganda biron bir shaxs haqida so'z yuritilmoqda. **Onu beğenmedim,bunu alabilir miyim? (İşaret**

² A. Von Gabain.Eski Türkçenin Grameri,Çeviren:Mehmet Akalın.-TDK yayınları,Ankara,2003.-67
Şinasi Tekin."Eski Türkçe".Türk dünyası el kitabı .-Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları ,Ankara,1992.-88-89
Faruk Kadri Timürtaş.Eski Türkiye Türkçesi XV.Yüzyıl Gramer-Metin-Sözlük .-Enderun Kitabevi, 1995.-84-85
Zeynep Korkmaz.Türkiye Türkçesi Grameri.-TDK Yayınları,Ankara ,827

zamiri) . Bu yerda esa ko’rsatish olmoshi hisoblanadi. Ko’rsatish orqali ifodalanmoqda. **O tatilde bolca çalışmayı düşünüyor . Kim? O**

Dokunma,onlar yırtıldığı için çöpe atılacak . Ne? (Kıyafetler). O so’zi gapdagi o’rniga qarab ham isharet zamiri ham kişilik zamiri hamda isharet sifati bo’la oladi.

Otdan oldin kelib,otni ishora qilsa isharet sifati hisoblanadi. O mağazaya biz de gittik.

Inson ismining o’rnida qo’llanilsa kişilik zamiri. O akşam uyuyamamış

Insondan tashqari boshqa narsa- buyum,predmet o’rnida kelsa isharet zamiri hisoblanadi. Onlari kim kesti? (Neleri? Ağačları)

"Bu,şu,o ,öteki,beriki,böylesi,şöylesi,öylesi" so'zlari turli xil vazifada kelishi mumkin.

Sen de bunu biliyor muydun? Bu isharet zamiri

Sen de bu bilgiyi internetten mi aldın. Isharet sifati

Şunu mağazada görmüşüm. Isharet zamiri

Şu kırmızı gömleği mağazada görmüşüm. Isharet sifati

O benim defterim . Isharet zamiri

O defter benim. Isharet sifati

Quyidagi so'zlar ham isharet zamiri hamda isharet sifati bo'lib kela oladi.

Ötekini sen al . Isharet zamiri

Öteki odaya gir. Isharet sifati

Böylesi, insani yorar. Isharet zamiri

Böylesi davranışlar insani halden doydurur .Isharet sifati.

Isharet zamiri yoki isharet sifati ekanligini qayerdan bilishimiz mumkin.

Quyidagi savollarni bersak kifoya:

Ot o’rnida qo’llanilmoqdami yoki otni ishora qilmoqdami? Olmoshlar ot o’rnida qo’llaniladi sifatlar esa ot bilan birga keladi. Birlik va ko’plik mavjudmi? Sifatlarning ko’plik ko’rinishi yo’q;olmoshlarda esa bor. Kelishik qo’shimchalarini qabul qiladimi? Sifatlar kelishik qo’shimchasini qabul qilmaydi,olmoshlar esa qabul qiladi. Albatta bular Turk tiliga xos.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki ,ko’rsatish olmoshlari bahsi yuritilgan biron bir narsani ,buyum yoki predmetni biron bir joyda,vaqtda yoki tasavvurdagi joylarida nomlarini tilga olmasdan turib,ularni ishora qilishga yordam beradigan olmoshlarga ko’rsatish olmoshlari deyiladi.

REFERENCES

1. Tahsin Banguoğlu. Türkçenin grameri .-Baha matbaası,İstanbul,1974.-360
2. Muharrem Ergin. Türk Dil Bilgisi. -Bayrak yayınları,İstanbul,1997.-217
3. Nurettin Koç.Yeni Dilbisi.-İnkılâp Yayınevi,İstanbul,1986.-174
4. A. Von Gabain.Eski Türkçenin Grameri,Çeviren:Mehmet Akalın.-TDK yayınları,Ankara,2003.-67
5. Şinasi Tekin."Eski Türkçe".Türk dünyası el kitabı .-Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları ,Ankara,1992.-88-89
6. Faruk Kadri Timürtaş.Eski Türkiye Türkçesi XV.Yüzyıl Gramer-Metin-Sözlük .- Enderun Kitabevi, 1995.-84-85
7. Zeynep Korkmaz.Türkiye Türkçesi Grameri.-TDK Yayınları,Ankara ,827